

**O‘ZBEK VA NEMIS TILLARI TA’LIM LEKSIKASIDA MADANIY KODLAR VA  
KONSEPTUAL TAFOVUTLAR****Astonova Go‘zalxon Raxmonaliyevna**

Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi

E-mail:gozalxonastonova@gmail.com

ORCID ID: 0009-0000-1845-421X

**Boybo‘tayev Shohjahon Jo‘rabek o‘g‘li**

Farg‘ona davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda o‘zbek va nemis tillaridagi ta’lim sohasiga oid lug‘aviy birliklarning o‘rganilishi terminologik, semantik, stilistik va diskursiv darajalarda qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot davomida o‘zbek tilidagi ta’lim leksikasining xalqona, obrazli va emotsional tabiati hamda affiksial yasalish modeli yoritib berilgan.

**Abstract:** This abstract presents a comparative analysis of lexical units within the educational field in Uzbek and German languages across terminological, semantic, stylistic, and discursive levels. The study highlights the figurative, emotional, and culturally rich nature of Uzbek educational lexis, which primarily relies on the affixal word-building model.

**Аннотация:** В данных тезисах проводится сопоставительный анализ изучения лексических единиц сферы образования в узбекском и немецком языках на терминологическом, семантическом, стилистическом и дискурсивном уровнях.

**Kalit so‘zlar:** ta’lim leksikasi, o‘zbek tili, nemis tili, qiyosiy-semantik tahlil, pedagogik diskurs, didaktik kommunikatsiya, metafora, sotsiokognitiv yondashuv.

**Keywords:** educational lexis, Uzbek language, German language, comparative-semantic analysis, pedagogical discourse, didactic communication, metaphor, socio-cognitive approach.

**Ключевые слова:** образовательная лексика, узбекский язык, немецкий язык, сравнительно-семантический анализ, педагогический дискурс, дидактическая коммуникация, метафора, социокогнитивный подход.

O‘zbek va nemis tilshunosligida ta’lim sohasiga oid lug‘aviy birliklarning o‘rganilishi bir qator nazariy va amaliy jihatlari bilan o‘zaro umumiylik va farqlarga ega. Bu ikki tilning morfologik tuzilishi, lingvistik yondashuvlari, madaniy kodlari, shuningdek, ta’lim tizimining ijtimoiy-tarixiy konteksti asosida shakllangan lug‘aviy tizimlar terminologik, semantik, stilistik va diskursiv darajalarda o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ularning qiyosiy tahlili har ikkala tilshunoslikda ham yangi ilmiy yo‘nalishlarni belgilaydi.

Ta’limga oid lug‘aviy birliklar har ikkala tilda ham ijtimoiy institut sifatida ta’lim faoliyatining markaziy komponentini tashkil etadi. O‘zbek tilida bu birliklar asosan xalqona, semantik jihatdan boy, ta’sirli va obrazli shaklda namoyon bo‘lsa, nemis tilida ular rasmiy, me’yoriy va texnik xususiyatga ega. Bu farq birinchi navbatda til va madaniyat o‘rtasidagi tafovutlardan, shuningdek, tilshunoslikdagi ustuvor yondashuvlardan kelib chiqadi.[1]

Terminologik jihatdan tahlil qilinganda, o‘zbek tilidagi “o‘qituvchi”, “o‘quvchi”, “darslik”, “ta’lim dasturi” kabi birliklar ko‘proq affiksial modelda yasalgan, semantik jihatdan soddalashtirilgan va qabul qilinadigan birliklardir. Nemis tilidagi Lehrkraft, Schüler, Lehrplan, Bildungsstandards kabi terminlar esa morfosintaktik murakkablikka ega bo‘lib, yuqori darajada strukturaviy va semantik

qatlamlı yondashuvni talab qiladi. Bu terminlar ko‘pincha birikma so‘zlar shaklida bo‘lib, kognitiv konseptlar asosida yaratilgan.

Qiyosiy semantik tahlil esa ikki til terminlari orasidagi paradigmatic o‘xshashliklar va konseptual tafovutlarni ko‘rsatadi. Masalan, o‘zbek tilidagi “tarbiya” tushunchasi ko‘pincha diniy-axloqiy va emotsional jihat bilan bog‘liq bo‘lsa, nemis tilidagi Erziehung rasmiy va o‘quv jarayon sifatida tasvirlanadi. Yoki o‘zbek tilidagi “ilm nuri” metaforasi obrazli va hissiy bo‘lsa, nemis tilidagi Lernprozess als Reise (ta‘lim – bu safar) kognitiv jarayonni anglatadi. Demak, tildagi metaforalar vositasida pedagogik tafakkurning xalqona yoki rasmiy konstruksiyalari yashiringan bo‘ladi.

Stilistik va pragmatik jihatdan esa o‘zbek tilida o‘qituvchi nutqi obrazli, hissiy va xalqona iboralarga boy bo‘lsa, nemis tilida bu nutq rasmiy va sintaktik jihatdan qat‘iy me‘yorlashtirilgan bo‘ladi. Masalan, o‘zbek tilida “Barakalla, bolam, yaxshi yozibsan!” degan jumla orqali baholovchi va rag‘batlantiruvchi xususiyat birgalikda berilsa, nemis tilida bu Sehr gut gemacht!/Barakalla! kabi qisqa va standart formula orqali ifodalanadi. Ushbu farq didaktik kommunikatsiyaning tilga bog‘liq madaniy xususiyatlaridan dalolat beradi.[2]

Metaforik birliklar ikki tilda ham didaktik jarayonni idrok etishda vosita sifatida ishlatiladi, biroq ular zamirida yotgan konseptlar farqlidir. O‘zbek tilida ilm nur, o‘qituvchi esa muqaddas ustoz sifatida ifodalansa, nemis tilida o‘qituvchi ko‘proq Moderator, Begleiter (yo‘lboshchi, kuzatuvchi) sifatida talqin qilinadi. Bu farq ta‘limdagi ijtimoiy rollar va psixologik pozitsiyalarni til orqali qanday ifodalashda ko‘zga tashlanadi.

So‘z yasalihi bo‘yicha olib borilgan qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida affiksatsiya asosiy model bo‘lsa, nemis tilida so‘z birikmasi va leksik morfemalarni kombinatsiya qilish ustunlik qiladi. O‘zbek tilidagi o‘qituvchi fe‘lga qo‘shimcha qo‘shish orqali yasalgan, nemis tilidagi Lehrkraft esa ikki mustaqil so‘zning sintaktik kombinatsiyasi asosida namoyon bo‘ladi. Bu farq leksik birlik, terminlarning yasalihi yo‘nalishlarini ko‘rsatibgina qolmay, ularning qabul qilinish jarayonini ham shakllantiradi.[3]

Shuningdek, har ikki til terminlari o‘ziga xos semantik tarmoqni hosil qiladi. Masalan, o‘zbek tilida bilim, ko‘nikma, malaka tushunchalari orasida semantik yaqinlik bo‘lsa, nemis tilida bu Kenntnis, Fähigkeit, Kompetenz kabi birliklar orqali qattiq chegaralangan. Shu sababli, terminlarning qiyosiy o‘rganilishi o‘zaro mos ekvivalentlar topish bilan birga, har bir tilning bilim strukturasi qanday shakllantirishini ochib beradi.

Shuni aytish mumkinki, o‘zbek va nemis tillaridagi ta‘limga oid lug‘aviy birliklarning o‘zaro qiyosi orqali faqat lingvistik emas, balki sotsiokognitiv, madaniy va metodik tafovutlar ham aniqlanadi.[4] Bunday tahlillar til o‘rganish, tarjima, o‘quv materiallarini ishlab chiqish, lingvodidaktik metodikani takomillashtirish uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Курбонов Ф. Ўқитувчи нутқида баҳо берувчи лексик бирликлар. – Тошкент, 2015. – Б.145.
2. Хайитов Х. Ўзбек тилида услублар ва услубий воситалар. – Т.: Ўқитувчи, 1978. – 187 б
3. Kuliyyev O., Ziyaeva K., Abdurasulova K. Beyond Knowledge: Measuring the Impact of Cultural Intelligence on Student Performance in Global Education // Qubahan Academic Journal, 2025. – № 4. – B. 203-215.
4. Reusser K. Lehrerrolle und Unterrichtsgestaltung // Zeitschrift für Pädagogik. – 2011. – № 57 (2). – S.112-130.